

# SPORT BOSHQARUVI VA KADRLAR TAYYORLASHDA INNOVATSION YONDASHUV

## ALISHER TISHABAYEV

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Farg'ona filiali direktori

## BEK BEKOV

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Farg'ona filiali direktorining o'quv, ilmiy va xalqaro aloqalar bo'yicha o'rinbosari

## NODIRBEK MATXOSHIMOV

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Farg'ona filiali o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mualliflar tomonidan sport boshqaruvi faoliyati, jismoniy tarbiya va sport sohasida murabbiy va sportchilarni tayyorlash hamda ularni malakasini oshirish, kasbiy faoliyatini baholash masalalari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** malaka oshirish, sport boshqaruvi, jismoniy tarbiya, sport, kasbiy faoliyat.

**Dolzarbli.** Jismoniy tarbiya va sport inson faoliyatining o'ziga xos xususiyatli xizmatlar sohasidir. Jismoniy tarbiya va sport sohasida murabbiy va sportchilarni tayyorlash darajasi, sportchining jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va boshqa ko'rsatkichlari, yirik musobaqalarda ularning qatnashish tajribasi va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi [2, 5, 6].

Mamlakatimiz sport tashkilotlarining rivojlanishida mazkur muammolarni ijobiy hal qilish uchun sport menejmenti doirasida jismoniy tarbiya va sport sohasida xizmatlar bozorini to'laqonli shakllantirish va rivojlantirishning strategik menejment konsepsiyasi hamda innovatsion mexanizmini shakllantirish dolzarb masalalarning yechimlarini topishga imkon beradi [3].

Jumladan, sport tashkilotlarida optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish, bozordagi brendni yanada kuchaytirish va uning taniqliligini oshirish, mustaqil daromad topish manbalarini izlash, reklama faoliyati samaradorligini oshirish, mijozlarga nisbatan alohida yondashuvni amalga oshirish, sport tashkilotlarining imijini yaxshilash va raqobatbardosh sport mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni nafaqat ichki iste'mol bozoriga, balki tashqi bozorlarga ham chiqarish, davlat va xususiy mulk mushtarakligida sport menejmenti strategiyasi uchun zarur bo'lgan asosni yaratish, murabbiylar, sportchilar, hakamlar va boshqa sport tashkilotlari subyektlari uyushmasining shakllanishi, ishqibozlar, homiylar, sportchilarni sotish va sotib olish, ommaviy sport, sport biznesi, sog'lom turmush tarzi hamda sport sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va

tartibga solish tizimini rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishdir [4].

**Muhokamalar.** Respublika hududlari bo'yicha ommaviy sportni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan sport tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va ularning ravnaqi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan innovatsion modelni yaratish, jismoniy tarbiya va sport sohasi rivojlanishini baholash uslubiyati asosida korporativ maqsadli sport menejmenti strategiyalarini aniqlash, yosh iqtidorli sportchilarga bo'lgan talabni aniqlashning innovatsion uslubiyatini ishlab chiqish va sport xizmatlariga bo'lgan talabni qondirishning iqtisodiy andozasini yaratish hamda jahon bozorlarida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha sport menejmentining strategik konsepsiyasini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish sport menejerlarining funksional vazifalaridir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 355-sonli qarorida ham jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni kasbiy, ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirish, sport ta'lim tizimini ilmiy-metodik ta'minlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quv-mashg'ulot jarayoniga, xususan, sport ta'lim muassasalari amaliyotiga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakllari va usullarini joriy etish, sport ta'lim muassasalari faoliyatining samarador-

## Sport ilm-fanining dolzarb muammolari

ligini oshirish kabi muhim vazifalar va topshiriqlar belgilab qo'yilgan [1]. XXI asrga kelib jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish kishilar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Sport sog'lom avlodni voyaga yetkazish, yoshlarni ma'naviyatli qilib tarbiyalash, har tomonlama yetuk insonlar bo'lishlari uchun ko'maklashish vositalaridan biri ekanligini barcha millatlar, barcha davlatlar anglab yetmoqdalar.


**Natijalar.** Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish

tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 355-sonli qarorida ham jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni kasbiy, ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirish, sport ta'lim tizimini ilmiy-metodik ta'minlash, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quv-mashg'ulot jarayoniga, xususan, sport ta'lim muassasalari amaliyotiga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakllari va usullarini joriy etish, sport ta'lim muassasalari faoliyatining samaradorligini oshirish kabi muhim vazifalar va topshiriqlar belgilab qo'yilgan [1].

## Jadval

### Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filialida 2023 yil yanvar-may oylari bo'yicha kasbiy faoliyat natijalari

Yo'nalishlar	Yanvar		Fevral		Mart		Aprel		May	
	86	56	86	56	86	56	86	56	86	56
Instruktorlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari	-	1	-	-	-	4	-	1	-	-
Trener-o'qituvchilar	7	34	10	13	16	15	18	8	17	13
<i>Jami:</i>	7	35	10	13	16	19	18	9	17	13
<b>Umumiy natijalar:</b>	<b>42</b>		<b>26</b>		<b>35</b>		<b>27</b>		<b>30</b>	
<b>Tinglovchilar umumiy soni:</b>	<b>376</b>		<b>337</b>		<b>342</b>		<b>309</b>		<b>318</b>	



Rasm. Farg'ona filialda 2023-yil yanvar-may oylari bo'yicha kasbiy faoliyat natijalari (%).

Shuningdek, mazkur qarorning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan "Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomning kasbiy faoliyati natijalari – jismoniy tarbiya va sport

bo'yicha mutaxassislarning kasbiy faoliyatida erishgan natijasi, tayyorlagan sportchilari va ularning erishgan yutuqlari, o'quv adabiyotlari va ilmiy-tadqiqot ishlari, ratsionalizatorlik takliflari, patentlar hamda mualliflik guvoh-

nomalari kabi yutuqlarini shaffof va adolatli baholash tizimini joriy etilishi natijasida ko'plab trener-murabbiylar faoliyati oqilona baholanib, malaka oshirish kurslaridan ozod etilmoqda.

**Xulosalar:** sportning vazifalari faqatgina musobaqalashish, bellashish, raqobatlashish bilangina chegaralanib qolmasdan, insonning komil bo'lishiga, uning jismoniy va ma'naviy

dunyoqarashining rivojlanishiga yordam beradigan samarali omillardan biri bo'lib bormoqda. Bu jarayonda sport mutaxassislarining funktsiyalari alohida o'ringa ega. Sport mutaxassislari bu – “tanlagan sport turi yoki sport turlari bilan muntazam shug'ullanadigan, doimo o'zining sport mahoratini oshirib boradigan va sport tadbirlarida qatnashadigan jismoniy shaxs”dir.

**Аннотация.** В данной статье авторы рассматривают аспекты деятельности в области спортивного менеджмента, а также подготовки и повышения квалификации тренеров и спортсменов в сфере физической культуры и спорта. Осуществляется оценка их профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** повышение квалификации, спортивный менеджмент, физическая культура, спорт, профессиональная деятельность.

**Annotation.** In this article, the authors consider aspects of activities in the field of sports management, as well as training and advanced training of coaches and athletes in the field of physical culture and sports. Their professional activities are assessed.

**Key words:** advanced training, sports management, physical education, sports, professional activity.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 4 июлдаги “Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 355-сонли Қарори;

2. С.А.Аралов, СПОРТ МЕНЕЖМЕНТИ ВА УНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ // Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 34-36;

3. Алексеев С. Спортивный менеджмент. Регулирование организации и проведения физкультурных и спортивных мероприятий. – Литрес, 2022;

4. Р.Ф. Ибрагимович, ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА СПОРТ СОҲАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ // Journal of New Century Innovations. – 2023. – Т. 20. – №. 4. – С. 83-86;

5. А. Тошмуродов, СПОРТ СОҲАСИДА МАРКЕТИНГ КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ АҲАМИЯТИ // ИНТЕРНАЦИОНАЛ СОНФЕРЕНСЕС. – 2022. – Т. 1. – №. 14. – С. 45-49;

6. А.Б. Жуманиязов, Жисмоний тарбия ва спорт менежменти бўйича кадрлар тайёрлашнинг долзарб муаммолари // Фан-Спортга. – 2020. – №. 5. – С. 13-14;

7. Починкин А. Менеджмент в сфере физической культуры и спорта. Учебное пособие. – Литрес, 2022;